

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI TIZIMI VA ASOSIY VAZIFALARI

*Hakimova Dilshoda Otabek qizi*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi yo'nalishini 3-kurs 307-guruh Kursanti*

**Annotatsiya:** Maqola O'zbekiston Respublikasi IIO lari Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati haqida fikrlar bayon qilingan ushbu xizmat faoliyati, funksiyalari va vazifalari ushbu mavzu orqali bayon qilinadi. Mamlaktimiz shiddat bilan rivojlanayotgan davrda bu soha xalq bilan bevosita va eng ko'p aloqa qiladigan soha sifatida boshqa sohalardan ajralib turadi.

**Kalit so'zlari:** Huquqbuzarlik, profilaktika, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari, asosiy vazifalari

**Tanlangan mavzuning dolzarbligi.** Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining chora-tadbirlari aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti. Hududlarda sodir etilayotgan jinoyatlarga imkon berayotgan sabab, shart-sharoitlar o'rganilib chiqilmay qolayotgani, o'rganilganda ham yuzaki yondashuv ko'pligi, vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibliги huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi.

**Maqola obekti va predmeti.** Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlaridagi organlar va shaxslar hisoblanadi.

**Huquqbuzarlik** — huquq va muomala layoqatiga ega sub'yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O'z xususiyatiga ko'ra, huquqbuzarlik jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda qonunbuzarlik so'zi bilan bir xilda ishlatiladi. Fuqaroviy (shaxsga, fuqaro yoki tashkilotning mulkiga ziyon yetkazish), ma'muriy (mayda bezorilik, yo'l harakati qoidasini buzish), intizomiy (nojo'ya harakat, ishga kelmaslik, kech qolish) farqlanadi, eng xavfli ko'rinishi jinoyatdir. Qonunda tegishlicha fuqaroviy, ma'muriy, intizomiy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Huquqbuzarlik-sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli, g'ayriijtimoiy qilmish

(harakat yoki harakatsizlik) huquqbuzarlikning jinoyat turi o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi hamda qolgan huquqbuzarliklarga nisbatan huquqiy oqibati yomonroqdir. Xususan, jinoyat uchun qolganlariga nisbatan og'irroq jazolar qo'llanilishi aytib o'tiladi. Huquqbuzarliklarga nisbatan jazo choralari quyidagicha qo'llaniladi 1) Jinoiy javobgarlik jk43-modda 2) Mamuriy mjtk23-modda 3) Intizomiy mkm 181-modda 4) fuqaroviy shaxsning toliq moddiy va manaviy jihatdan javob berishidir.

**Профилактика** (yun. profi laktikos saklovchi, oldini oluvchi) — odamlarning uzoq umr ko'rishi, ishlash qobiliyatini saqlab qolishi, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar. kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olish hamda salomatlikni himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, gigiyenik va tibbiy chora-tadbirlar majmui. Профилактика jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Профилактика tushunchasi va uning amaliy shakli jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davrida iqtisod, davlat tuzumi va ilm-fanning rivojlanishiga qarab o'zgarib turgan. Профилактика qadim zamondan ma'lum. Qad. tibbiyotda shaxsiy gigiyena va to'la-to'kis ovqatlanish qoidalariga amal qilish bilan kasalliklarning oldini olishga katta ahamiyat berilgan, lekin profilaktika 19-asrdan boshlab ilmiy jihatdan asoslab berildi. Kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishida tashqi muhitning ahamiyatini o'rganish, mikrobiologiya, fiziologiya, immunologiya va gigiyena sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar ilmiy profilaktika ning tashkil topishiga imkon berdi.

Zamonaviy profilaktika inson salomatligiga salbiy ta'sir etadigan omillarni yo'qotishni ko'zda tutadigan hamda ularning jismoniy va ma'naviy irodalarini har tomonlama o'stirishni ta'minlaydigan, davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan kompleks tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda – IIV deb yuritiladi) Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati

IIV Transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari (keyingi o'rinlarda IIV–IIBB–IIB deb yuritiladi)ning huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda – HPB deb yuritiladi);

ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari (keyingi o'rinlarda – Markazlar deb yuritiladi);

tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari), transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari, bo'linmalari, guruhlar (keyingi o'rinlarda – TSh IIB HPBlar deb yuritiladi);

ichki ishlar organlarining qishloq, ovul va mahallalarda joylashgan mahalla huquq tartibot maskanlari

**Quyidagilar Ichki ishlar bo'limlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

hududdagi kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasida mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bartaraf etish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash, kadrlar salohiyatini doimiy ravishda mustahkamlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarning ijrosini tashkil etish hamda shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish jazolarni ijro etish inspeksiyalari faoliyatini, shuningdek qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot choralarini ijro etish bo'yicha faoliyatni belgilangan tartibda nazorat qilish;

transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (bo'linmalari, guruhlar) faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash, kadrlar salohiyatini doimiy ravishda mustahkamlash;

qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari va usullarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil etish;

axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

**Xulosa;** Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko'satkichlar bundanda

ijobiyroq ko‘rinishga keladi. Shu sabab sohaga e‘tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne‘mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne‘matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne‘matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda. Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan hamkorligi natijasida sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, ularni hisobini yuritish ishlari amalga oshirilmoqda. Shunday ekan hamkorlikni tashkil etilayotgan vaqtda organlar o‘rtasidagi aniq maqsad va vazifalar belgilanib olinishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar;**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun 2014-yil 14-may